



UDK:80/81

Uktamjon MARDANOV,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti
E-mail: Mardanovuktamjon@gmail.com

Navoiy davlat universiteti dotsenti G.Ernazarova taqrizi asosida

OYDIN HOJIYEVA SHE'RLARIDA QO'LLANGAN SOHAVIY TERMINLAR LINGVOPOETIKASI(MA'DANSHUNOSLIK TERMINLARI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik, lingvopoetik jihatlarini, semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosida ona tilimizning boyligidan unumli foydalanibgina qolmasdan, uning rivojiga ham munosib hissa qo'shgan iste'dodli shoira Oydin Hojiyeva she'rlarida qo'llangan ma'danshunoslilik terminlarining lingvopoetikasi atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, lingvopoetika, lingvopoetik yondashuv, terminlar semantikasi, pragmatika, lisoniy tafakkur, ma'danshunoslilik terminlari, uslubiy xoslanish, nutqiy individuallik.

ЛИНГВОПОЭТИКА ПРЕДМЕТНЫХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ОЙДИН ХОДЖИЕВОЙ (НА МАТЕРИАЛЕ ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ТЕРМИНОЛОГИИ)

Аннотация

В данной статье дается подробный обзор лингвопоэтики терминов горного дела, используемых в стихотворениях талантливой поэтессы Ойдин Ходжиевой, которая не только эффективно использует богатство нашего родного языка, но и вносит достойный вклад в его развитие, опираясь на научные исследования, посвященные специфическим особенностям терминов, их лингвокультурологическим, лингвопоэтическим аспектам, семантике и прагматике.

Ключевые слова: Лингвокультурология, лингвопоэтика, лингвопоэтический подход, семантика терминов, прагматика, языковое мышление, горнодобывающие термины, стилистическая адаптация, речевая индивидуальность.

THE LINGUISTIC POETICS OF SPECIALIZED TERMS USED IN OYDIN HOJIYEVA'S POETRY (BASED ON CULTURAL STUDIES TERMINOLOGY)

Annotation

This article explores the linguistic and poetic characteristics of terms used in the poetry of Oydin Hojiyeva, a talented poet who has not only effectively utilized the richness of her native language but also contributed to its development. The study is based on scientific research focusing on the specific features of terms, their linguocultural and linguopoetic aspects, semantics, and pragmatics. It comprehensively illuminates the linguopoetics of cultural studies terms employed in her poetry.

Key words: Linguoculturology, linguopoetics, linguopoetic approach, semantics of terms, pragmatics, linguistic thinking, cultural studies terms, stylistic features, speech individuality.

Kirish. Tilshunoslikda XXI asr boshlaridan til tizimini antroposentrik paradigma asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Til tizimi til sohiblarining real voqelik haqidagi bilimlari, lisoniy tafakkuri, ma'naviyati, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, psixologiyasi, madaniyatini, mentalitetini aks ettiruvchi ko'p qirrali hodisa sifatida tavsiflangan lingvistik tadqiqotlar amalga oshirila boshladi. Ammo bu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, termin muammosi, uning badiiy matnda yuzaga chiqadigan lingvopoetik xususiyatlarini yoritish, turli sohaga oid terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatini tadqiq etish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda tilshunoslikda terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik, lingvopoetik jihatlarini, semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlarida keng ko'lamda tadqiq etilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab terminlarning badiiy matndagi xususiyatlari lingvopoetik yondashuvda, shuningdek, matn qurshovida o'rganila boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. H.Shamsiddinovning nomzodlik dissertatsiyasida she'riy tizimda terminlarning uslubiy vazifalari hamda terminlarda funksional-semantik sinonimlarning qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan [6].

Bugungi kunda D.Jamoliddinova o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qo'llanishini

va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishini o'ziga xos tarzda yoritib beradi. Olimaning fikricha: "Hozirgi davrda terminologik birliklarni o'rganishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar terminning leksik birlik sifatidagi maqomini qayta ko'rib chiqish, uning potensial hajmi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash kabi vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Bu o'z navbatida terminlarning leksikografik manbalarda ifoda etishning yangi modellashtirish tamoyillarini ishlab chiqishga olib keladi" [1].

G.Ernazarova "O'zbek tili mineralogiya terminlarining lingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasining alohida bobini "Mineralogiya terminlarining lingvopoetik xususiyatlari"ga bag'ishlagan. Ishda terminlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari, o'zbek tilida yaratilgan nazmiy va nasriy asarlarda individual-muallifiy metaforalar ko'p uchrashi, ularni tadqiq etish so'z san'atkorlarining nutqiy individualligini ochib berish bilan birga metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi, mineralogiya terminlarining o'xshatishlarni hosil qilishi qayd etilgan. Mineralogiya (ma'danshunoslilik) terminlarining badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qimmatini tadqiq etish, ularning o'ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egaligi ochib berilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarni ilmiy, amaliy va nazariy jihatdan obyektiv ravishda amalga oshirish uchun o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan an'anaviy, sistem-struktur, antroposentrik tahlil

metodlaridan integrativ tarzda o'zni bilan foydalanilmoqda. Lingvopoetikani tadqiq etishning yangi metodlaridan foydalangan holda keng ko'lamda o'rganishni taqozo qilmoqda. Maqolani yoritishda lingvopoetikada lingvostilistik tahlil metodining stilistik tajriba, semantik-stilistik, qiyosiy-stilistik va statistik-stilistik metodlaridan foydalaniladi. Chunki ijodkor va kitobxondagi idrok, avvalo, matnda qo'llangan til birliklarining matni mazmunini, adib matnda nega aynan shu til birligini tanlaganining sababini bilishi lozimdir.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e'tibor qilinganligi ko'zga tashlanadi. Ana shu ishlarga tayangan holda elimizning ardoqli shoirasi Oydin Hojiyeva she'rlarida qo'llangan terminlarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritib berishga urinamiz.

Barcha so'z san'atkorlari qatori Oydin Hojiyeva ham o'z she'rlarida tilimizdagi poetik ta'sirchan, obrazli so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali she'riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go'zal bo'lishiga muvaffaq bo'lgan.

Ijodkor o'z she'rlarida marjon, marvarid, oltin, zumrad, yoqut, gavhar, lojuvard, feruza, dur, kumush kabi ma'danshunoslik terminlari vositasida davming ijtimoiy-siyosiy ruhini berish, tuyg'ularini tiniq tasvirlarda ifodalash uchun metaforik mazmun yaratadi. Masalan,

Qaylardasan, kamnamo ilhom,

Kiyik bo'lib cho'llarga qochding?

Yo men bilmay qoldim: nomozshom

Marvariding ko'llarga sochding?

O'zbek tilining izohli lug'atida marvaridga quyidagicha ta'rif beriladi. MARVARID [f.inju – dur, inju] ba'zi mollyuskalar (yumshoq tanlilar)ning chig'anog'idan olinadigan oq, sarg'ish, ba'zan qora qimmatbaho donacha; dur.

Yuqoridagi nutqiy parchada shoiraning ilhomga murojaati tasviri berilgan bo'lib, bu o'rinda qo'llangan "marvarid" ma'dani ilhomning go'zal, qimmatli lahzasi, inja tuyg'ular, ruhiy go'zallik, so'z, ijod mahsuli kabi pragmatik ma'nolarni o'zida aks ettirmoqda. Badiiy matnlarda marvaridni juda go'zal, nodir, bebaho narsa yoki inson tasvirida ham qo'llanilganligini uchratish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, shoiraning mazkur she'rida marvarid ma'danshunoslik termini vositasida hosil qilingan metafora muhim tasviriy vosita bo'lib qolmasdan, nutqni bezash, his-tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko'tariladi. She'ring keyingi o'rnida yoqut ma'danshunoslik termini konnotativlikni yuzaga keltirmoqda. Unda ijodga, go'zallikka tashna shoira qalbi ilhomni hayotiga chorlash tasvirini berishda, yoqutni juda noyob, qimmatli, bebaho sir kabi pragmatik ma'nolarni ifoda qilishga bo'ysundirgan. Ya'ni qalbida yashiringan, qadri, anglashi oson bo'lmagan tuyg'u yoki holat sifatida ishlatgan:

Qay kaptarning yuragidasan,

Yoqut toshday berkingan tilsim,

Qay bahorning daragidasan,

Hayotimga kel, ey xush nasim!

Misralardagi go'zal tasvirlardan anglash mumkinki, ijodkorning "Chorlash" she'rida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar – marvarid, yoqut shoirning xalq tilidagi mavjud tasvir vositalaridan, uning beqiyos go'zal tilining yashirin imkoniyatlaridan juda o'rinni foydalanганиni, so'z ustasining o'ziga xos individual uslubi xalqona ekanini namoyon etadi. Yuragining tubida yashiringan inja sirlarini, aytmochi bo'lgan go'zal ifodalarini ma'danshunoslik terminlari orqali ifodalaydi.

Ma'lum bir sohaga mansub terminlar nafaqat ilmiy uslubda, badiiy matnda turli uslubiy vosita sifatida ham qo'llanishi mumkin. Badiiy matnda qo'llangan sohaviy terminlar badiiy-estetik xususiyatga ega bo'ladi. Bunday terminlar orasida, ayniqsa, ma'danshunoslik terminlar xilma-xil badiiy tasvir vositalarini hosil qilishda eng faol uslubiy vosita vazifasini bajaradi.

Sevgimsan – umrimning oltin fursati,

Oh, sendan judolik tushmasin boshga.

Tilda yaxlit, quyma holga kelgan bunday an'anaviy metaforik birikmalarga mahoratli adib badiiy tus berishga erisha olgan. Badiiy matnlarda tasvit obyektiga mos ravishda qo'llanilgan bunday assotsiatsiyalar oddiy tasvirga nisbatan ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ular muallifning poetik niyatini yuzaga chiqarishga, shuningdek, matnning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Boychechakday zumrad Martda

Bo'l navbahor jarchisi!

Boshiga ko'targan yerni o'psam deb,

Orziqib yellarga tutadi ko'ksin.

Zumrad yoshligimni qayta topsam der,

Oh, yana bo'lsam der, novdalar husni.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da zumrad ma'daniga quyidagicha ta'rif berilgan. ZUMRAD [f. < yun.. smaragd – sanjarang tosh] 1 Oliy sifatli, och yashil tusli qimmatbaho tosh. 2 ko'chma sft. Och yashil, sabzarang [4]. Oydin Hojiyevaning "Bayramdagi gul kabi" she'rida zumrad ma'danshunoslik terminini yashillik va beg'uborlik ma'nolarida qo'llab tasvirning realligiga erishilgan, fikr ixcham va obrazli ifoda etilgan. Xuddi shunga o'xshash tasvirlarni shoiraning quyidagi misralarda ham ko'rishimiz mumkin:

Qizil lolalarning

Gul kosasida

Bir tomchi dur bo'lgan

Xulosasida

Semurg' qushlar undan

Topolsin shifo.

Dilingga jo bo'lsin

Zumradda dunyo.

Misralardagi lolalar – go'zallik, poklik va muhabbat ramzi. Gul kosasidagi bir tomchi dur – nihoyatda qimmatli, kamyob haqiqat yoki shifo, toza va ilohiy xususiyatlarga ega bo'lgan bir tomchi sifatida namoyon bo'lish bilan birga tabiiy soflik, tashvishlardan holi bo'lish va ruhi poklikni ifodalashda ishlatiladi. Semurg' qushi – afsonaviy donolik va najot timsoli. U durga, ya'ni ma'naviy yuksalishga intiladi.

Dilingga jo bo'lsin zumradda dunyo misrasida qalbingda go'zallik, umid va ezgulik singsin degan ma'nolarida qo'llaniladi.

Dengizlardan guhar topdim,

G'oyiblardan xabar topdim,

Pulsirotdan guzar topdim,

Ko'ngilday ko'ngil topmadim.

GAVHAR (f. –qimmatbaho tosh; marvarid) ma'danshunoslik terminining tilimizda quyidagi ma'nolari mavjud: 1) tarashlab sayqal berilgan olmos; umumian qimmatbaho toshlarning umumiy nomi; javhar. 2) ko'chma Qimmatli, bebaho, nodir narsa [3].

Alisher Navoiy asarlarining lug'atida gavhar ma'danshunoslik terminining quyidagi ma'nolari keltirilgan: 1. Asl, asl-nasab, kelib chiqish. 2. Asosiy xususiyat. 3. Materiya. 4. Mohiyat, asl ma'no, tub, asos [7].

Shoira nazdida so'z go'yo gavhardir. Ijod jarayonida o'z sayqalini topgan gavhar – so'z misralarda o'z jilvasini topgan, ijodkor esa fikrning obrazli ifodalanishini ta'minlashga erishgan.

Sen gullading – bog'im, atir-anbarim,

Qirq og'ayni gulim – boshga chamberim,

So'nmas bahor, to'kin yozim, gavharim,

Boshim uzra osmon bo'ldi lojuvard.

Gavhar – go'zallik, noyoblik yoki bebaho narsalarning ramzi sifatida ishlatiladi. Nutqiy parchadagi "gavharim" "mening qimmatbaho boyligim", "eng aziz narsam" ma'nosida qo'llangan.

LOJUWARD [f. – qimmatbaho ko'k tosh; moviy, zangori] 1 To'q ko'k, yashilga moyil havorang tusli mayda donador, shishasimon yaltiroq mineral. 2 Tiniq ko'k, tiniq ko'k tusli [3].

Nutqiy parchadagi "lojuvard osmon" – tiniq ko'k osmon tasvirini ifodalaydi. Gavhar va lojuvard ma'dan nomlari she'rida nafasat, beg'uborlik, go'zallik kabi pragmatik ma'nolarni o'zida aks ettiradi.

Ijodkorning "Umr bu..." she'rida umr bir o'rinda go'yoki quyma oltinga qiyoslansa, yana bir o'rinda Yaratgan tomonidan berilgan tufha – feruza toshga mengzaladi. Ya'ni qimmatbaho

ma'danlar: yombi oltin, feruza tosh bizga hadya tariqasida berilgan bebaho ne'mat – umr. Uni chiroyli tarzda o'tkazish, yaxshi amallar bilan bezash insonning o'ziga bog'liqligi misralarga singdirilgan.

Umr – yombi oltin, bug'doy doniday

Maydalama uni tegirmonlarda,

Allohning farzi bor aziz jonlarda.

Senga bir hadiyat bul feruza tosh,

O'zing zargarisan, zahhobi o'zing,

Qalloblarni-da sangtarosh aylama...

Qalamga olingan ma'danshunoslik terminlari polisemantik xususiyatga ega. Bu holat ularning boshqa turdagi terminlardan farqli xususiyatlarga ega ekanligini anglatadi. Misollardan ma'lum bo'ladiki, ma'danshunoslik terminlarining polisemantik xususiyati, badiiy asarlarda, ayniqsa, she'riyatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jihat ularni lingvopoetik aspektda kengroq tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi.

Ey g'aflat bandasi, ko'zni och,

O'zingga o'zingsan zo'r tilmoch:

Iymonni mahak tosh qilursan,

Mismisan, kumushsan – bilursan...

Asrlar osha o'zining sofliqi, haqqoniyliqi bilan bashariyat qalbidan chuqur joy olgan dinimizdan ozuqa olgan mashoyixlarimizning hikmatga boy o'gitlari kishilarni doimo ezgulikka, halolikka va to'g'rilikka chorlab kelgan. Mazkur misralarda juda katta falsafiy ma'no yashiringan. Ma'lumki, mahak tosh – oltin, kumushning sofliqini aniqlash uchun ishlatiladigan tosh. Misralarda inson avvalo o'zini o'zi isloh qilish kerakligi uqdiriladi. Musibatlariga sabr qilish, ne'matlarga shukur qilish, adolat bilan ish yuritish sof iymonning belgilaridir. Inson ana shu sifatlarining o'zida qay darajada ekanligini bilsa, o'zini o'zi anglaydi. Shoir ta'biri bilan aytganda, o'zining "mis" yoki "kumush"ligini ya'ni "asl"ini biladi.

Adibning "Yoshlarga deganim" she'rini tahlilga tortamiz:

It tegsa bulg'anar oqar daryo ham...

Buzg'un xayollardan asrasin egam,

Onaga tik boqib bo'lmang boshi xam,

Zanglamas, aynimas oltin bo'lgaysiz.

Vatanni bir tovoq kepakka sotib,

Bir umr xiyonat loyiga botib,

Durday jigarlarin balchiqqa qotib,

Yurgan nokaslardan yiroq bo'lgaysiz...

Bu yerda "oltin" – yuksak qadriyat, ma'naviy mukammallik, mustahkamlik, poklik, abadiylik ramzi sifatida qo'llangan. Oltin zanglamaydi, o'z sifatini yo'qotmaydi – bu bilan shoir inson ham o'zligini yo'qotmasligi, axloqan pok, bardavom qadriyat egasi bo'lishi kerakligini nazarda tutgan. Oltin inson hayotidagi eng yaxshi, yorqin va adolatli fazilatlarini ifoda etadi. Agar insonning iymoni oltinday sof bo'lsa, durday jigarlar – eng qadrlil farzandlar, qon-qarindoshlarini ham tan olmaydigan turli xil yod oqimlarga kirib qolgan kimsalarning ta'siriga tushib qolmaydi degan ma'nolarni ifodalaydi.

Badiiy uslubda so'z qo'llash imkoniyatlarining kengligi unda turli uslublarga xos, hatto ilmiy terminologiyaga oid birliklarning ham erkin ishlatilishiga yo'l beradi. N.Mahmudov qayd etganidek, "...badiiy uslub alohida va o'ziga xos uslub hisoblansa-da, uning o'ziga xosligi tildagi boshqa vazifaviy uslublarning ham unda bemalol harakatda bo'laverishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham mutaxassislar badiiy nutqning ko'p uslubligini alohida ta'kidlaydi, bunda ilmiy va badiiy uslublarning o'zaro hamkorligi, bir-biriga o'tishi holatlarini tahlil qiladilar"[2].

Xulosa va takliflar. Ma'danshunoslik terminlarining yuzaga kelishi insonning olamni idrok etishi, dunyoqarashi, milliy-madaniy qarashlari kabilarga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu holat olamning lisoniy manzarasida sezilarli va muhim o'rin egallagan ma'danshunoslik terminlarida yanada yorqin aks etgan. Bu kabi xususiyatlarni yanada teranroq ochib berish uchun badiiy asar tili ustida ishlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ma'danshunoslik terminlari vositasida hosil qilingan xilma-xil tasviriy vositalar, poetik metaforalar, voqelikni obrazli tasvirlashga xizmat qiladi, asarning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga asarning badiiyligini yuqori pog'onaga ko'taruvchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Жамолитдинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан д-ри (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 71 б.
2. Махмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва тақомили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №2. – Б.5.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 1-жилд. 2006. – Б. 473.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2-жилд. 2006. – Б. 165
5. Эрнazarова Г. Ўзбек тили минералогия терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – 150 б.
6. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.
7. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент. 1972. – Б. 154.